

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16734341>

Milliy tarbiya asoslari fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari

Tursunov Alisher Yigitaliyevich –
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Milliy tarbiya asoslari” fanini o'qitish jarayonining didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, fan mazmunining ta'lim va tarbiya integratsiyasini ta'minlashdagi ahamiyati, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi roli asoslab beriladi. Shuningdek, milliy tarbiya asoslari fanini o'qitishda zamonaviy didaktik yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi. Fan doirasida didaktik vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya asoslari, didaktik imkoniyatlar, ta'lim va tarbiya integratsiyasi, pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, milliy qadriyatlar.

Дидактические возможности преподавания дисциплины «Основы национального воспитания»

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются дидактические возможности преподавания дисциплины «Основы национального воспитания». Обосновывается значение содержания предмета в обеспечении интеграции обучения и воспитания, а также его роль в формировании у обучающихся национального самосознания, духовно-нравственных качеств, гражданской ответственности и социальной активности. Кроме того, рассматриваются вопросы повышения эффективности образовательного процесса

за счёт применения современных дидактических подходов, инновационных педагогических технологий и интерактивных методов обучения при преподавании основ национального воспитания. На основе научных аргументов показано, что целенаправленное использование дидактических средств в рамках дисциплины способствует развитию знаний, умений и компетенций обучающихся.

Ключевые слова: основы национального воспитания, дидактические возможности, интеграция обучения и воспитания, педагогические подходы, инновационные технологии, интерактивные методы, национальные ценности.

Didactic opportunities of teaching the subject “Fundamentals of national education”

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the didactic opportunities in teaching the subject “Fundamentals of National Education.” It substantiates the importance of the subject content in ensuring the integration of education and upbringing, as well as its role in developing students’ national identity, spiritual and moral qualities, civic responsibility, and social activity. In addition, the paper highlights issues related to enhancing the effectiveness of the educational process through the application of modern didactic approaches, innovative pedagogical technologies, and interactive teaching methods in teaching the fundamentals of national education. Based on scientific evidence, it is demonstrated that the purposeful use of didactic tools within the subject contributes to the development of students’ knowledge, skills, and competencies.

Keywords: fundamentals of national education, didactic opportunities, integration of education and upbringing, pedagogical approaches, innovative technologies, interactive methods, national values.

KIRISH

Hozirgi ta’lim tizimida yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta’lim bilan tarbiyaning uzviy birligi ta’minlanishi, o’quvchilarda milliy ong, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda “Milliy tarbiya asoslari” fani muhim pedagogik ahamiyatga ega bo’lib, u shaxs kamolotining ma’naviy va ijtimoiy jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Milliy tarbiya asoslari” fanining mazmuni o’quvchilarda milliy o’zlikni anglash, tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, an’analar va qadriyatlarga sadoqat tuyg’ularini shakllantirishga yo’naltirilgan. Shu bilan birga, mazkur fan ta’lim jarayonida nazariy bilimlar bilan amaliy tarbiyaviy faoliyatning uyg’unligini ta’minlash imkonini beradi. Ta’lim va tarbiya integratsiyasi fan mazmunida yetakchi tamoyil sifatida namoyon bo’lib, o’quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta’lim jarayonini shaxsga yo’naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan holda tashkil etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, “Milliy tarbiya asoslari” fanini o’qitishda didaktik imkoniyatlarni aniqlash, ularni tizimli va maqsadga muvofiq qo’llash dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi. Fan doirasida qo’llaniladigan ta’lim shakllari, metodlari va vositalari o’quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijtimoiy hodisalarga ongli munosabat bildirish hamda milliy

qadriyatlarga asoslangan xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ayni paytda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish "Milliy tarbiya asoslari" fanining didaktik salohiyatini yanada kengaytiradi. Mazkur yondashuvlar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, bilimlarni ongli va barqaror o'zlashtirish, shuningdek, tarbiyaviy ta'sirning samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Didaktik vositalardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning shaxsiy pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitish jarayonining didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, fan mazmunining ta'lim va tarbiya integratsiyasini ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalalari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Milliy tarbiya masalalari pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Milliy tarbiya shaxsni har tomonlama kamol toptirishda ta'lim mazmunining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi hamda u ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy ong va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Milliy tarbiyani yosh avlodni milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy xotira va madaniy meros asosida tarbiyalash jarayoni sifatida izohlaydilar.

Pedagogik adabiyotlarda milliy tarbiyaning mazmuni va vazifalari asosan ta'lim va tarbiya integratsiyasi nuqtai nazaridan yoritilgan. Ayrim olimlar milliy tarbiyani faqat tarbiyaviy faoliyat doirasida talqin qilgan bo'lsa, boshqa tadqiqotlarda u o'quv fanlari mazmuni orqali tizimli ravishda amalga oshiriladigan pedagogik jarayon sifatida asoslab berilgan. Bu yondashuvlar "Milliy tarbiya asoslari" fanining mustaqil o'quv predmeti sifatida shakllanishi va rivojlanishiga ilmiy zamin yaratgan. Didaktik imkoniyatlar masalasi esa asosan ta'lim nazariyasi va metodikasi doirasida o'rganilgan bo'lib, didaktik kategoriyalar – maqsad, mazmun, metod, shakl va vositalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida talqin etiladi. Ilmiy manbalarda didaktik imkoniyatlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar majmui sifatida izohlanadi. Shu jihatdan, "Milliy tarbiya asoslari" fanining didaktik imkoniyatlarini aniqlash mazkur fanning mazmuniy va metodik salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi alohida tadqiq etilgan. Tadqiqotchilar milliy tarbiya mazmunini zamonaviy didaktik vositalar orqali yetkazish o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishi, mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydilar. Biroq, "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari masalasi ko'pincha umumiy pedagogik yondashuvlar doirasida yoritilib, mazkur fanning o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Shu sababli, tahlili natijalari "Milliy tarbiya asoslari" fanining didaktik imkoniyatlarini alohida ilmiy muammo sifatida o'rganish, fan mazmuni, metodlari va vositalarini integratsiyalashgan holda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini asoslab, keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy-metodik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

"Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitish jarayonining didaktik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish va ilmiy asoslashga qaratilgan bo'lib, unda pedagogika fanining zamonaviy metodologik yondashuvlariga tayangan holda kompleks tadqiqot olib borildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar fan mazmunining ta'lim va tarbiya integratsiyasini ta'minlashdagi o'rnini ochib berish hamda o'quvchilarda milliy va ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali milliy tarbiya, didaktik imkoniyatlar, ta'lim va tarbiya integratsiyasi hamda pedagogik texnologiyalar masalalariga oid mavjud ilmiy yondashuvlar o'rganildi va ularning mazkur tadqiqot doirasidagi ahamiyati aniqlashtirildi. Empirik tadqiqot metodlari doirasida pedagogik kuzatuv, suhbat va so'rovnoma metodlaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv orqali "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan didaktik vositalar, ta'lim metodlari va o'quvchilarning faollik darajasi tahlil qilindi. Suhbat va so'rovnoma esa o'qituvchilar hamda o'quvchilarning fan mazmuni, ta'lim metodlari va tarbiyaviy ta'sir samaradorligi haqidagi qarashlarini aniqlashga xizmat qildi.

Olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida miqdoriy va sifat tahlili metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari diagrammalar, jadval va umumlashtirilgan xulosalar orqali tizimlashtirildi hamda ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ldi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot maqsadiga erishish, qo'yilgan vazifalarni izchil amalga oshirish va ilmiy asoslangan natijalarni taqdim etish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqot natijalari "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitish jarayonida didaktik imkoniyatlardan maqsadga muvofiq foydalanish ta'lim va tarbiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Xususan, fan mazmunini tizimli ravishda tashkil etish, ta'lim va tarbiya integratsiyasiga asoslangan yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarda milliy ong, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar hamda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Pedagogik kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, interfaol metodlar va innovatsion didaktik vositalardan foydalanilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligi sezilarli darajada oshdi. O'quvchilar fan mazmunini ongli o'zlashtirish, milliy qadriyatlar mohiyatini tahlil qilish va ularni shaxsiy hayotiy tajriba bilan bog'lashda yuqori natijalarga erishdilar. Bu holat "Milliy tarbiya asoslari" fanining didaktik imkoniyatlari o'quvchilarda nafaqat bilim, balki kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. So'rovnoma va suhbatlar natijalariga, o'qituvchilarning aksariyati mazkur fanni o'qitishda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarurligini e'tirof etadilar. O'qituvchilar tomonidan interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va guruhli ishlarga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga, milliy va ma'naviy masalalarga ongli munosabat bildirishiga yordam berayotgani ta'kidlandi. Shu bilan birga, ayrim hollarda didaktik vositalardan tizimsiz foydalanish fan mazmunining to'liq ochib berilishiga to'sqinlik qilishi mumkinligi aniqlandi.

"Milliy tarbiya asoslari" fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish o'quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan bir qatorda, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va fuqarolik mas'uliyatiga oid mavzularni interfaol metodlar orqali o'rganish o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Mazkur natijalar mavjud ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariy qarashlarni tasdiqlaydi hamda "Milliy tarbiya asoslari" fanining didaktik salohiyatini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlangan kamchiliklar, xususan, didaktik vositalardan foydalanishda metodik tavsiyalarining yetarli emasligi, fan mazmunini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish masalalarida muayyan muammolar mavjudligi ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish lozimligini anglatadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki "Milliy tarbiya asoslari" fanini o'qitishda didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Ushbu holat mazkur

fan bo'yicha ta'lim jarayonini takomillashtirish va metodik ta'minotni yanada boyitish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

XULOSA

“Milliy tarbiya asoslari” fanini o'qitish jarayonining didaktik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratildi. Ushbu fan mazmunining ta'lim va tarbiya integratsiyasini ta'minlashda muhim o'rin tutishini hamda o'quvchilarda milliy ong, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishda yuqori pedagogik salohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. “Milliy tarbiya asoslari” fanini kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning shaxsiy va ijtimoiy kamolotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy didaktik yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlardan tizimli foydalanish fan mazmunining samarali o'zlashtirilishiga xizmat qilishi ilmiy dalillar asosida tasdiqlandi.

Shuningdek, didaktik vositalardan maqsadga muvofiq va izchil foydalanish “Milliy tarbiya asoslari” fanining tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirishini ko'rsatdi. Bunda fan mazmunini amaliy faoliyat, muammoli vaziyatlar va guruhli ishlash shakllari bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga ongli munosabat bildirish hamda ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, “Milliy tarbiya asoslari” fanini o'qitishda didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy sifatini oshirishga, shuningdek, barkamol, ma'naviy yetuk va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur fanni o'qitish metodikasini takomillashtirish, didaktik ta'minotni boyitish va amaliyotga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 288 b.
2. O.Musurmonova Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 240 b.
3. M.Abdullaeva, Jo'raev R. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 312 b.
4. D.Karimova Innovatsion texnologiyalar yordamida ingliz tili darslarini samarali tashkil etish. – Toshkent, 2018. – 128 b.
5. B.X.Xodjaev Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan, 2021. – 190 b.
6. N.S.Saidahmedov Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2017. – 256 b.
7. R.Jo'raev, Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. – 228 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini joriy etish to'g'risida”. – Toshkent, 2019.
9. B.Usmonov Ta'lim va tarbiya integratsiyasi masalalari. Pedagogika jurnali, 2021. – №3 45-50 b.